

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARNING
KOMPETENTLIGINI FIZIKADAN AMALIY MASHG'ULOTLAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH**

Qodirov Saidbek Umidjon o'g'li, Ubaydullaeva Vazira Patchaxanovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning kompetentligini fizikadan amaliy-mashg'ulotlar asosida shakllantirishda muhim bo'lgan bir qancha pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash usullari keltirilgan. Shuningdek, maqolada yondoshuvlar asosida talabalarning amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlanish samaradorligi muhokma qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o'rganishga e'tiborni qaratish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. Bu esa ushbu fanlar misolida o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va talabalarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va fizika faniga oid umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi[1].

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun talabaga o'quv fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan metodlardan butunlay farq qiladigan malakalar (kompetensiyalar) kerak bo'ladi. Eng muhimi talabaga bo'lgan yangicha munosabatni ishlab chiqishi kerak bo'ladi.

Interfaol usullar bilan ishlash talabalar tomonidan o'quv axborotlarini tizimli, yaxlit holda o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, interfaol metodlar yordamida talabalar o'quv axborotlari bilan ishlashda bilimlarni tahlil qilish, sintezlash, muhim tushunchalarni tizimlashtirish, ob'ekt, jarayon, faoliyat, hodisalarning umumiy mohiyatini aniq ifodalash kabi kompetensiyalarni o'zlashtirishga erishadi.

S.Isamitdinov, Sh.M.Kadirov va A.Mavlyanovlar ta'kidlashicha, interfaol usullar tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishni rivojlantirishga asoslanadi. Ulardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar, bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Bu o'zlashtirilayotgan bilim samaradorligini oshiradi. Quyida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining tayyorgarligini shakllantirishda muhim metodlarni bayon etamiz [2, 3, 4].

Aqliy hujum usuli: g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Talabalar birlashgan holda muammoni yechishga harakat qiladilar: yechish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar. Vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdan iborat. Bu metod muammoni hal qilayotgan talabalarning fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi hisoblanadi. Hech bo'lmaganda bittasi maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

T-sxema usuli: qiyosiy tushunchalar (ha/ yo‘q yoki roziman/ qarshiman)ning universal tashkilotchisi bo‘lib, farq qiluvchi fikrlarni ko‘rgazmali va ixcham tarzda tasvirlashga qulaylik yaratadi. Masalan, ta‘limning an‘anaviy va noan‘anaviy shakli haqidagi matn o‘qilganidan so‘ng, birinchi guruh T-sxemani chizib, chap tomoniga an‘anaviy ta‘limning afzalliklarini berilgan vaqt davomida ko‘rsatib berishadi. So‘ngra bu fikrga qarshi bo‘lgan fikrlarni, ya‘ni an‘anaviy ta‘limning kamchiliklarini ko‘rsatib o‘tishadi. Ikkinchi guruh xuddi shunday sxemada noan‘anaviy ta‘limning afzallik va kamchiliklarini tahlil qiladi. Guruhlarning chizmalari taqqoslanib, guruh bilan T-sxema tuziladi va muhokama etiladi.

Modellashtirish usuli: o‘z ichiga real hayotni qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan moslama yoki vaziyatni o‘z ichiga oladi. Pedagog bayon qilayotgan hodisa va voqealarni talabalar idrok etib, daftarida chizayotgan model orqali mavzuni mustahkamlaydi. Masalan, ichki yonuv dvigateli. Bug‘ trubinasi mavzusini ko‘rsatish mumkin. Bu mavzuni o‘tishdan oldin pedagog ichki yonuv dvigateli modelini guruhga beradi va tushuntiradi. Quyidagi savollar dvigatel modeliga qarab tushuntiriladi: Qanday dvigatel ichki yonuv dvigateli deyiladi? Yonilg‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri dvigatelning ichida, uning silindrida yonayotgani uchun ichki yonuv dvigateli deyiladi.

Ichki yonuv dvigateli qanday asosiy qismlardan iborat bo‘ladi? Dvigatel silindrdan iborat bo‘lib, ichida porshen yuradi, porshen tirsakli valga shatun yordamida biriktirilgan. Valning tekis aylanishi uchun valga salmoqli g‘ildirak o‘rnatilgan. Silindrning yuqoridagi qismida ikkita klapan bo‘lib, dvigatel ishlab turganda avtomatik ravishda ochilib, yopilib turadi. Yonuvchi aralashma silindrga birinchi klapan orqali kirib, svecha yordamida alanga oladi. Yonganda hosil bo‘lgan gazlar ikkinchi klapan orqali chiqarib yuboriladi. Bularning hammasi model orqali ko‘rsatib boriladi.

Kichik guruhlarda ishlash: pedagog mehnatining murakkabligi guruhdagi imkoniyatlarning rivojlanishiga sharoit yarata bilishdir. Eng muhimi o‘zligini, hayotini idrok etishga ehtiyoj uyg‘otishi darkor, ular bilim olish yo‘lidagi mashaqqatli mehnatida muvaffaqiyat qozonishi uchun pedagog har birining imkoniyatlariga ishonishi zarur. Bu yo‘ldagi muvaffaqiyatlar pedagogning qat‘iyatiga, o‘z vaqtida yordamga bera olishiga bog‘liq. Ularni 4 guruhga bo‘lib olish kerak. Keyin ularga nom berish kerak. Masalan, atom, molekula, kuch, ish kabilar. O‘tiladigan mavzudagi muhim so‘zlar bilan nomlansa, juda ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Amaliy-jarayonli kompetensiyalarini shakllantirishda *amaliy usulni* eng muhimi deb qabul qilingan. Bu usul mashqlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Mashq jarayonida talaba bir necha bor amaliy va aqliy amallarni takrorlaydi. Ularga topshiriqlar taklif etiladi, ular tarqatma materiallar bilan mustaqil ishlaydi. Mashqlarni bajarishning ham jamoaviy ham individual shakllaridan foydalaniladi. Jamoaviy mashqdan bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlashdan tashqari nazorat uchun ham foydalanish mumkin. Individual mashq xuddi shu funksiyani bajarish bilan jamoaviy faoliyatga talabalarni yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta‘lim metodi. Ta‘lim jarayonida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish quyidagi umumiy omillarga bog‘liq bo‘ladi: o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli savollar tizimi tuzish; qo‘yilgan muammoli savollar tizimi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan tema materiallarini o‘rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish; muammoli savol asosida izlanish xarakteridagi o‘quv vazifalarini qo‘yish.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta'lim deyiladi. Muammoli ta'limda o'qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunni tushuntira borib o'rganilayotgan mavzu materialini bilan talabalar orasidagi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiriladi, talabalarni faktlardan xabardor qiladi, natijada talabalar bu faktlarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar.

Shunday qilib muammo hech qanday tayyorgarliksiz, to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmaydi. U o'quv mashg'ulotidagi bosh masala sifatida bayon qilinadi. Qo'yilgan muammolarning murakkabligi tabiiyki, talabalar saviyasiga mos bo'lishi kerak. Tanishtiriladigan materiallar murakkab bo'lmasligi lozim. Materialni, xususan masala va topshiriqlarni talabalarning o'zlari hal qila olsalargina, ularning muammolarni hal qilishga salohiyati ortadi.

Xulosa: Fizika fani o'qituvchisi tomonidan o'quv mashg'uloti jarayoniga joriy etiladigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlari mashg'ulot mazmuni, o'quv dasturi, darslik yoki o'qituvchi faoliyati orqali o'tilishidan qat'iy nazar, talabaning erkin va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. O'qitish metodlari o'quv mashg'uloti jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli metodlarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон).

Исамитдинов С. Таълим ва инновацион усуллар. Услубий тавсиянова. -Тошкент: РТМ, 2005. – 120 б.

Кадыров Ш.М. Педагогические основы индивидуально-групповых методов как интеграционной формы обучения в высшей школе. Автореф. дисс...Пед .наук. -Тошкент: ТДПУ, 1991.- 22 с.

Мавлянов А., ва б.қ. Интерфаол усуллар асосида ўтиладиган машғулотларда таълим олувчиларнинг мустақил фикрлашини ривожлантириш. Ўқув қўлланма. Тошкент, - 2009. - 102 б